

# Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-iyul

## RAQAMLAR:


- 2019 yil yanvar- iyul oylarida bozor xizmatlari hajmi 3791,0 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 164,9 % ni tashkil etdi.
- Savdo xizmatlari ulushi ko'rsatilgan umumiyligi xizmatlar hajmida 41,7 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 1468,1 ming.so'mni o'sish sur'ati 107,9 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtini tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.

2019 yil yanvar- iyul oylarida Surxondaryo viloyatida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 3791,0 mlrd.so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 110, 3 %ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan xizmatlar umumiyligi hajmida eng katta hajm savdo xizmatlari (1578,9 mlrd.so'm)ni tashkil etadi.

## Ko'rsatilgan xizmatlar hajmining taqqoslanishi, mlrd.so'm




- Shu bilan birga, Savdo (1578,9 mlrd.so'm) transport xizmatlari hajmi (607,7 mlrd. so'm), moliyaviy xizmatlar (594,3 mlrd. so'm) Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (192,9 mlrd. so'm)


Bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasida 14,3 mingta korxona va tashkilotlar faoliyat ko`rsatmoqda. Xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning jami korxona va tashkilotlar sonidagi ulushi 59,9% ni tashkil etdi.

### **2019 yil yanvar-iyul oylarida korxona va tashkilotlar jami sonida xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko`rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi**

*(fermer va dehqon xo`jaliklarida ntashqari) % da*




### **2019 yil yanvar-iyul oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi,%**



2019 yil yanvar-iyul oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'atlari Termiz shahrida (113,9 %), Denov (113,0 %), Termiz (107,3%), Sariosiyo(106,4 %) Oltinsoy(105,8 %) tumanlarida qayd etildi.

**2019 yil yanvar- iyul oylarida shaxar va tumanlar bo'yicha  
ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %**



Yuqori bo'limgan o'sish sur'atlari Muzrabot (103,9 %), Angor (104,1 %) Qumqo'rg'on (104,6 %) Sho'rchi (104,8%) Qiziriq,Uzun (104,9 %),Sherabod (105.0%) , tumanlarida kuzatildi.

**2019 yil yanvar-iyul oylarida shahar va tumanlar bo'yicha  
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**


	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Surhondaryo viloyati</b>	<b>3791,0</b>	<b>110,3</b>
Termiz sh	1725,4	113,9
tumanlar:		
Oltinsoy	101,2	105,8
Angor	102,2	104,1
Boysun	81,7	105,2
Muzrabot	127,4	103,9
Denov	647,0	113,0
Jarqurg'on	134,8	105,3
Qumqurg'on	132,2	104,6
Qiziriq	120,0	104,9
Sariosiyo	149,9	106,4
Termiz	89,2	107,3
Uzun	98,9	104,9
Sherobod	145,6	105,0
Shurchi	135,5	104,8

Hududlar o'rtasida eng katta xizmatlar hajmi Termiz shahrida (1725,4 mlrd.so'm), Denov tumaniga (647,0 mlrd.so'm) to'g'ri keladi.

Eng past hajmlar Boysun (87,7 mlrd.so'm), Termiz tuman (89,2 mlrd.so'm), tumanlarida kuzatildi.

Hududlar o'rtasida Termiz shahri etakchi o'rinni egallaydi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida Termiz shahrining ulushi 45,5 % ni tashkil qiladi. Shu bilan birga, xizmatlar umumiy hajmida hududlar bo'yicha eng yuqorl ulushlarni Denov tumani (17,1 %), Sariosiyo (4,0 %) ,Sherabod (3,8%) tumanlari tashkil etadi.


**2019 yil yanvar- iyul oylarida shaxar va tumanlar bo'yicha jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi  
(jami hajmga nisbatan), %**



Hududlar o'rtasida eng past ulushlar Boysun (2,1%), Termiz tuman(2,4%) Uzun , Angor(2,6 %), Oltinsoy (2,7 %), to'g'ri keladi.

2019 yil yanvar- iyul oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1468,1 ming.so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 107,9 % ni tashkil etdi.

### 2019 yil yanvar- iyul oylarida shaxar va tumanlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichi Termiz shahrida – 11858,6 ming.so'm qayd etildi. 2018 yil yanvar-iyul oylariga nisbatan o'sish 112,8 % ni tashkil etdi.


Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng past ko'rsatkichi Qumqo'rg'on tumanida – 552,5 ming.so'm kuzatildi, o'sish sur'ati 102,2 % ni tashkil etdi.

**2019 yil yanvar-iyul oylarida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**

	Hajm mird so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>3791,0</b>	<b>110,3</b>
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	192,9	110,7
Moliyaviy xizmatlar	594,3	164,9
Transport xizmatlari	607,7	102,7
Shu jumladan:	577,5	101,7
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	132,5	110,0
Savdo xizmatlari	1578,9	103,0
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	109,0	102,6
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	91,8	93,3
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	40,2	104,4
Ijara xizmatlari	95,7	111,6
Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	103,6	100,0
Shaxsiy xizmatlar	109,4	100,2
Me'morchilik sohasidagi xizmatlar	50,5	124,3
Boshqa xizmatlar	84,5	93,3

2019 yil yanvar-iyul oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha Savdo xizmatlari (41,7 %), Transport xizmatlari (16,0 %), Moliyaviy xizmatlar (15,7 %) Aloqa va axborotlashtirish (5,1 %), Yashash va ovqatlanish (3,5 %) xizmatlari bo'yicha yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

**2019 yil yanvar- iyul oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %**



Taqqoslash uchun, 2019 yil yanvar-iyul oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar -164,9 %, me'morchilik sohasidagi-124,3 %, ijara xizmatlari -111,6 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari- 110,7%, xizmatlar jami -110,3 %, yashash va ovqatlanish xizmatlari -110,0 % Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar- 104,4

2019 yil yanvar-iyul oylarida savdo xizmatlari hajmi 1578,9 mlrd.so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 41,7 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 210,9 mlrd.so'mga oshdi.

Savdo xizmatlarining eng katta hajmi Termiz sh. (749,0 mlrd.so'm), Denov (165,0 mlrd. so'm), Sariosiyo (68,3 mlrd. so'm) , Sho'rchi (65,7 mlrd. so'm), Sherabod (65,5 mlrd.so'm), Qumqo'rg'on (63,3 mlrd. so'm), Jarqo'rg'on (59,2 mlrd.so'm), Qiziriq (58,7 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

### **2019 yil yanvar- iyul oylarida hududlar bo'yicha savdo xizmatlarining hajmi, mlrd. so'm**




Savdo xizmatlarining eng past ko'rsatkichi Boysun tumanida kuzatilmogda.Ushbu hududda, savdo xizmatlari hajmi 37,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi o'smoqda.

Surxondaryo viloyati transportining samarali ishlashi modernizatsiyalash, innovatsion rivojlanish yo'llariga o'tish va milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishi uchun sharoit yaratishda alohida o'rinni tutadi.

Jami xizmatlar tarkibida etakchi o'rinni transportida ko'rsatilgan xizmatlar (16,0 %) egallaydi.

### **2019 yil yanvar- iyul oylarida transport xizmatlarining umumiy hajmida hududlarning ulushi, %**



**Surxondaryo viloyati Xizmatlar sohasi**

**Statistikasi bo'limi**

Mas'ul: P.Eshboeva

Tel: (71) 230-85-84

